

INGLIZ TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI TO'RTTA ASOSIY NUTQ KO'NIKMASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Akmalova Iroda Ergash qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, Tarix va filologiya fakulteti,

Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21868062>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy metodlari ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tinglab tushunish (listening), gapirish (speaking), o'qish (reading) va yozish (writing) ko'nikmalarining kommunikativ yondashuv asosida integratsiyalashgan holda rivojlantirilishi yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida uchraydigan pedagogik muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari hamda xalqaro tajribalar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, ingliz tili, listening, speaking, reading, writing, kommunikativ yondashuv, integratsiyalashgan ta'lim, oliy ta'lim.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ НА ОСНОВЕ ЧЕТЫРЁХ ОСНОВНЫХ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются современные методы развития коммуникативной компетенции при обучении английскому языку. Особое внимание уделено интеграции четырех основных речевых навыков — аудирования, говорения, чтения и письма — на основе коммуникативного подхода. Представлены педагогические проблемы, пути их решения и практические рекомендации для повышения качества преподавания английского языка в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, английский язык, аудирование, говорение, чтение, письмо, коммуникативный подход.

MODERN METHODS OF DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING THROUGH THE FOUR CORE LANGUAGE SKILLS

ABSTRACT

This article analyzes modern methods of developing communicative competence in English language teaching. The study focuses on the integrated development of the four core language skills—listening, speaking, reading, and writing—through the communicative approach. It also discusses pedagogical challenges and provides practical recommendations for improving English language teaching in higher education.

Keywords: communicative competence, English language, listening, speaking, reading, writing, communicative approach, higher education.

Kirish

XXI asrda globallashtirish, xalqaro hamkorlik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi xorijiy tillarni puxta egallashni zamonaviy mutaxassisning muhim kompetensiyalaridan biriga aylantirdi. Ayniqsa, ingliz tilining xalqaro ilm-fan, ta'lim, biznes va diplomatiya sohalarida asosiy muloqot vositasi sifatida qo'llanilishi uni o'qitish metodikasini takomillashtirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

So'nggi yillarda an'anaviy grammatika markazidagi ta'lim o'rnini kommunikativ yondashuv egallamoqda. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi talabalarni til birliklarini yodlashga emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda erkin va maqsadga muvofiq qo'llashga o'rgatishdan iborat. Shu bois kommunikativ kompetensiya zamonaviy xorijiy til ta'limining asosiy mezon sifatida e'tirof etiladi.

Kommunikativ kompetensiya tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarining uzviy rivojlanishiga asoslanadi. Ushbu ko'nikmalardan birining yetarli darajada shakllanmaganligi umumiy muloqot samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zamonaviy metodikada barcha nutq ko'nikmalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan metodlar keng qo'llanayotgan bo'lsa-da, nazariy bilimning ustunligi, autentik materiallardan kam foydalanish hamda to'rtta asosiy nutq ko'nikmasining to'liq integratsiyalanmaganligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi ingliz tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani to'rtta asosiy nutq ko'nikmasi asosida rivojlantirishning zamonaviy metodlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, mavjud pedagogik muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Zamonaviy xorijiy til ta'limining asosiy maqsadi talabalarda grammatik bilimlarni shakllantirish bilan cheklanmay, ularni turli kommunikativ vaziyatlarda ingliz tilidan samarali foydalana oladigan shaxs sifatida tayyorlashdan iborat. Shu sababli kommunikativ kompetensiya bugungi kunda xorijiy tilni o'qitish metodikasining asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi.

Kommunikativ kompetensiya nazariyasi dastlab Dell Hymes tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra tilni bilish nafaqat grammatik qoidalarni egallash, balki ularni real ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llay olish qobiliyatini ham anglatadi [2]. Keyinchalik Canale va Swain ushbu nazariyani rivojlantirib, kommunikativ kompetensiyani grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar yig'indisi sifatida izohladilar [3].

Kommunikativ kompetensiya to'rtta asosiy nutq ko'nikmasi — tinglab tushunish (Listening), gapirish (Speaking), o'qish (Reading) va yozish (Writing) — ning o'zaro uyg'un rivojlanishiga asoslanadi. Ushbu ko'nikmalar bir-birini to'ldirib, talabani real muloqot olib borish salohiyatini shakllantiradi. Masalan, tinglab tushunish rivojlanmasdan samarali suhbat qurish qiyin bo'lsa, o'qish tajribasi yetarli bo'lmagan talaba ilmiy yoki rasmiy matnlarni sifatli yozishda qiyinchilikka duch keladi.

Bugungi kunda ayrim ta'lim jarayonlarida nutq ko'nikmalari alohida-alohida o'qitilishi kuzatiladi. Biroq bunday yondashuv talabani haqiqiy kommunikativ faoliyatini to'liq shakllantira olmaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida matnni tinglash, uni o'qish, muhokama qilish va yozma xulosa tayyorlash ketma-ketligi barcha ko'nikmalarni bir vaqtning o'zida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) tizimi talablariga ham mos keladi. CEFRda kommunikativ kompetensiya xorijiy tilni egallashning asosiy

mezoni sifatida belgilanib, barcha nutq faoliyati turlarining integratsiyasiga alohida e'tibor qaratiladi [4].

Shuningdek, kommunikativ kompetensiya talabani tanqidiy fikrlashi, muammolarni hal etish, jamoada ishlash hamda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bois zamonaviy ingliz tili darslari faqat til bilimini emas, balki shaxsning kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalarini ham shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Yuqoridagi nazariy qarashlar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiyani samarali rivojlantirishning asosiy sharti to'rtta nutq ko'nikmasini yagona didaktik tizim asosida integratsiyalashgan holda tashkil etishdan iborat. Aynan shunday yondashuv talabalarning ingliz tilida erkin, mazmunli va samarali muloqot qilish kompetensiyasini shakllantiradi.

Ingliz tilini o'qitishda tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini alohida rivojlantirish ma'lum natija bersa-da, ularning integratsiyalashgan holda tashkil etilishi ancha yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Bunday yondashuv talabani tilni tabiiy kommunikativ muhitda qo'llash qobiliyatini rivojlantirib, real hayotdagi muloqotga yaqinlashtiradi [5].

Integratsiyalashgan darslarda talabalar avval autentik audio yoki videoni tinglaydi, asosiy g'oyalarni aniqlaydi, keyin shu mavzu yuzasidan juftlik yoki guruhlarda fikr almashadi. Shundan so'ng mavzuga oid matnni o'qib tahlil qiladi va yakunda yozma xulosa yoki esse tayyorlaydi. Bunday ketma-ketlik nafaqat til ko'nikmalarini, balki tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Integratsiyalashgan ta'lim modeli talabani passiv tinglovchidan faol muloqot ishtirokchisiga aylanishiga xizmat qiladi. Talaba grammatik qoidalarni yodlash bilan cheklanmay, ularni turli kommunikativ vaziyatlarda amaliy qo'llashni o'rganadi. Amaliy faoliyat orqali olingan bilimlar esa uzoq muddat xotirada saqlanib, kasbiy faoliyatda samarali qo'llaniladi.

Mazkur yondashuv lug'at boyligini tabiiy ravishda kengaytirishga ham yordam beradi. Yangi so'z va iboralar avval tinglash va o'qish jarayonida uchraydi, keyinchalik og'zaki muloqot hamda yozma topshiriqlarda mustahkamlanadi. Psixolingvistik tadqiqotlar bir xil til birliklarining turli nutq faoliyati davomida takror qo'llanishi ularning faol lug'at tarkibiga tezroq kirishini ko'rsatadi [8].

Integratsiyalashgan metodlarni samarali qo'llash o'qituvchidan mashg'ulotlarni puxta rejalashtirishni talab qiladi. Har bir darsda to'rtta nutq ko'nikmasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik saqlanishi, topshiriqlar bosqichma-bosqich murakkablashib borishi va baholash mezonlari barcha nutq faoliyatini qamrab olishi zarur.

Shunday qilib, tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini yagona tizim asosida rivojlantirish talabalarning erkin muloqot qilish, akademik matnlarni tushunish, ilmiy fikrni yozma ifodalash hamda xalqaro kommunikativ muhitga moslashish kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shu sababli integratsiyalashgan yondashuv zamonaviy ingliz tili ta'limining eng muhim metodik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ingliz tili ta'limida o'quv jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan qo'llanilayotgan pedagogik metodlarga bog'liq. An'anaviy ta'limda o'qituvchi asosiy axborot manbai bo'lsa, zamonaviy yondashuvda talaba ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu esa uning mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati va amaliy til kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [6].

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda Communicative Language Teaching (CLT) metodikasi muhim o'rin tutadi. Ushbu metodning asosiy maqsadi talabalarni grammatik qoidalarni yodlashga emas, balki real hayotiy vaziyatlarda erkin muloqot qila olishga o'rgatishdir. Shu sababli

darslarda rolli o'yinlar, juftlik va guruh ishlari, munozaralar, muammoli vaziyatlar hamda taqdimotlardan keng foydalaniladi. Bunday mashg'ulotlar talabalarning til ko'nikmalari bilan bir qatorda ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantiradi [7].

Yana bir samarali yondashuv Task-Based Language Teaching (TBLT) metodidir. Ushbu metodda asosiy e'tibor grammatik mavzularga emas, balki amaliy vazifalarni bajarishga qaratiladi. Masalan, sayohat rejasini tuzish, ish suhbatida ishtirok etish yoki ilmiy taqdimot tayyorlash kabi topshiriqlar orqali talabalar ingliz tilini tabiiy ravishda o'zlashtiradilar [9].

Shuningdek, Project-Based Learning (PBL) metodi ham kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Loyiha ishlari davomida talabalar ma'lumot izlaydi, uni tahlil qiladi, guruh bilan hamkorlik qiladi va yakuniy natijani ingliz tilida taqdim etadi. Natijada til kompetensiyasi bilan birga tadqiqotchilik, ijodkorlik va taqdimot ko'nikmalari ham rivojlanadi.

So'nggi yillarda autentik materiallardan foydalanish zamonaviy metodikaning ajralmas qismiga aylandi. Gazeta maqolalari, podkastlar, intervyular, TED Talks, ilmiy-ommabop matnlar va badiiy filmlar talabalarga tabiiy til muhiti bilan tanishish imkonini yaratadi. Bunday materiallar orqali ular turli talaffuz xususiyatlari, uslublar va madaniy kontekstlarni o'zlashtiradilar [10].

Shunday qilib, kommunikativ yondashuv, vazifaga asoslangan ta'lim, loyiha metodi va autentik materiallardan kompleks foydalanish talabalarning to'rtta asosiy nutq ko'nikmasini uyg'un rivojlantirib, ingliz tilida erkin va samarali muloqot qilish kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Globalashuv sharoitida ingliz tiliga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganiga qaramay, oliy ta'lim muassasalarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonida ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu muammolar ta'lim metodikasi, baholash tizimi, o'quv muhiti, talabalarning motivatsiyasi hamda o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi bilan chambarchas bog'liq [11].

Asosiy muammolardan biri nazariy bilimlarga ortiqcha e'tibor qaratilib, amaliy muloqot uchun yetarli imkoniyat yaratilmayotganidir. Natijada talabalar grammatik qoidalarni yaxshi bilsalar ham, kundalik yoki kasbiy vaziyatlarda ingliz tilida erkin fikr bildirishda qiyinchilikka duch keladilar.

Yana bir muhim muammo baholash tizimi bilan bog'liq. Ko'plab hollarda baholash grammatik to'g'rilik va yozma topshiriqlarga asoslanadi. Biroq kommunikativ kompetensiyani baholashda nutqning ravonligi, muloqotning mantiqiyliqi, tinglab tushunish, fikrni asoslay olish hamda vaziyatga mos muloqot qilish qobiliyati ham hisobga olinishi zarur. Shu bois baholash mezonlarini CEFR talablari asosida takomillashtirish muhim ahamiyatga ega [4].

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda o'qituvchining metodik mahorati ham hal qiluvchi omil hisoblanadi. Zamonaviy o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki talabalarning faol ishtirokini ta'minlovchi moderator va yo'naltiruvchi bo'lishi kerak. Shu sababli professor-o'qituvchilarning malakasini muntazam oshirish va ularni innovatsion metodikalar bilan tanishtirish zarur.

Shuningdek, auditoriyadan tashqarida ingliz tilidan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi ham til ko'nikmalarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ingliz tili klublari, debatlar, taqdimotlar, kitobxonlik uchrashuvlari va xalqaro talabalar bilan onlayn muloqotlar talabalarning amaliy tajribasini boyitadi.

Bundan tashqari, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda madaniyatlararo yondashuv muhim o'rin tutadi. Darslarda turli mamlakatlarning madaniyati, urf-odatlar va

kommunikativ xususiyatlarini aks ettiruvchi autentik materiallardan foydalanish talabalarning nafaqat til bilimini, balki madaniyatlara muloqot kompetensiyasini ham rivojlantiradi [12; 13].

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun o'quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish, autentik materiallardan keng foydalanish, kommunikativ baholash tizimini joriy etish hamda talabalarning mustaqil va ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir. Mazkur choralar ingliz tilini o'qitish sifatini oshirish va talabalarda barqaror kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada va Finlandiya kabi davlatlarning ta'lim tizimida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish xorijiy til ta'limining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Ushbu mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, tilni o'qitishda grammatik bilimlardan ko'ra ularni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llashga alohida e'tibor qaratiladi [13].

Buyuk Britaniya oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslari ko'pincha problem-based learning va case-study metodlari asosida tashkil etiladi. Talabalar real hayotiy vaziyatlarni tahlil qiladi, muammolarga yechim izlaydi va o'z fikrlarini ingliz tilida himoya qiladi. AQSH universitetlarida esa Collaborative Learning modeli keng qo'llanilib, talabalar kichik guruhlarda ishlash, fikr almashish va birgalikda loyiha bajarish orqali kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradilar [9].

Finlandiya tajribasida fanlararo integratsiyaga alohida e'tibor beriladi. Ingliz tili tarix, iqtisodiyot, ekologiya va axborot texnologiyalari kabi fanlar bilan bog'langan holda o'qitiladi. Natijada talabalar tilni alohida fan emas, balki bilim olish va kasbiy faoliyat vositasi sifatida qabul qiladilar.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda xorijiy tillarni o'qitishga oid islohotlar amalga oshirilmoqda. CEFR standartlariga mos baholash tizimining joriy etilishi, zamonaviy darsliklarning yaratilishi va pedagoglarning malakasini oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar kommunikativ yondashuvni rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda [14].

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bilan bir qatorda, uni xolis va kompleks baholash ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy yondashuvlarda baholash faqat yakuniy natijani aniqlash emas, balki talabaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi pedagogik vosita sifatida qaraladi [15].

Bugungi kunda CEFR mezonlari kommunikativ kompetensiyani baholashning eng ishonchli xalqaro standartlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizimda baholash grammatik bilimlar bilan cheklanmay, talabaning turli kommunikativ vaziyatlarda erkin muloqot qila olishi, fikrini asosli ifodalashi hamda muammolarni til vositasida hal eta olishi bilan belgilanadi [4].

Bundan tashqari, formativ baholash, portfolio, o'z-o'zini baholash (self-assessment) va o'zaro baholash (peer assessment) metodlari talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu usullar orqali talabalar o'z yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qilish, muntazam teskari aloqa olish hamda kommunikativ faoliyatini bosqichma-bosqich takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shunday qilib, xalqaro tajriba va zamonaviy baholash yondashuvlari kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ularni milliy ta'lim tizimi xususiyatlariga mos ravishda qo'llash ingliz tilini o'qitish sifatini oshirish va talabalarning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot ingliz tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani to'rtta asosiy nutq ko'nikmasi asosida rivojlantirishning zamonaviy metodlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishga

qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyasi hamda zamonaviy xorijiy til o'qitish nazariyalari tashkil etdi [1; 3; 6].

Tadqiqot davomida ilmiy-nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, analiz va sintez hamda pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Xususan, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida qo'llanilayotgan metodlar Buyuk Britaniya, AQSH va Finlandiya tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, kommunikativ metodlarning talabalarining o'quv faolligi va nutq ko'nikmalariga ta'siri pedagogik kuzatishlar asosida baholandi.

Olingan natijalarning ishonchliligini ta'minlash maqsadida mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, xalqaro standartlar hamda pedagogik kuzatishlardan olingan xulosalar o'zaro solishtirildi. Bu tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qildi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuv an'anaviy o'qitish metodlariga nisbatan yuqori samaradorlikni namoyon etadi. Ayniqsa, tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini yagona didaktik tizim asosida rivojlantirish talabalarining ingliz tilidan real kommunikativ vaziyatlarda foydalanish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi [3; 7].

Pedagogik kuzatishlar davomida talabalar guruhli ishlash, debatlar, loyiha ishlari va rolli o'yinlarda faolroq ishtirok etgani hamda yangi leksik birliklarni tezroq o'zlashtirgani aniqlandi. Autentik materiallardan foydalanish esa tinglab tushunish, lug'at boyligini kengaytirish va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil bo'ldi [10; 11].

Shuningdek, tadqiqot natijalari kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish faqat auditoriya mashg'ulotlari bilan cheklanmasligi kerakligini ko'rsatdi. Til klublari, ilmiy seminarlar, debatlar, xalqaro loyihalar va ingliz tilidagi taqdimotlarda ishtirok etish talabalarining amaliy til tajribasini boyitishi va ularning xalqaro akademik hamda kasbiy muhitga moslashuvini kuchaytirishi qayd etildi.

Natijalar shuni tasdiqladiki, kommunikativ yondashuv, vazifaga asoslangan ta'lim, loyiha metodi va autentik materiallardan kompleks foydalanish talabalarining kommunikativ kompetensiyasini har tomonlama rivojlantirishda eng samarali metodlardan hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari ingliz tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning eng muhim sharti tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini integratsiyalashgan holda tashkil etish ekanligini ko'rsatdi. Zamonaviy pedagogik metodlar, xususan Communicative Language Teaching (CLT), Task-Based Language Teaching (TBLT), Project-Based Learning (PBL) hamda autentik materiallardan foydalanish talabalarining ingliz tilidan real kommunikativ vaziyatlarda samarali foydalanish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda CEFR mezonlariga asoslangan baholash tizimi, formativ baholash, portfolio, o'z-o'zini baholash va o'zaro baholash metodlarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar talabalarining mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirib, o'quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, kommunikativ yondashuvni milliy ta'lim tizimi xususiyatlariga moslashtirish, amaliy mashg'ulotlar ulushini ko'paytirish, autentik materiallardan foydalanishni kengaytirish hamda o'qituvchilarning metodik kompetensiyasini muntazam rivojlantirib borish oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish samaradorligini yanada oshiradi.

Umuman olganda, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy metodlarni izchil qo'llash talabalarining ingliz tilida erkin muloqot qilish, tanqidiy fikrlash,

akademik yozuv va xalqaro kasbiy faoliyatga tayyorligini kuchaytiradi hamda ularning zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.
2. Hymes, D. H. (1972). On Communicative Competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics*. Harmondsworth: Penguin Books.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
4. Council of Europe. (2020). *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume*. Strasbourg: Council of Europe Publishing.
5. Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching* (5th ed.). Harlow: Pearson Education.
6. Brown, H. D., & Lee, H. (2015). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy* (4th ed.). New York: Pearson Education.
7. Nunan, D. (2004). *Task-Based Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Thornbury, S. (2005). *How to Teach Speaking*. Harlow: Pearson Longman.
9. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). *Techniques and Principles in Language Teaching* (3rd ed.). Oxford: Oxford University Press.
10. Nation, I. S. P., & Newton, J. (2020). *Teaching ESL/EFL Listening and Speaking* (2nd ed.). New York: Routledge.
11. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2021). *How Languages are Learned* (5th ed.). Oxford: Oxford University Press.
12. Byram, M. (1997). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. Clevedon: Multilingual Matters.
13. Kumaravadivelu, B. (2006). *Understanding Language Teaching: From Method to Postmethod*. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni. 2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha strategik yo'nalishlar.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar.